

MAMLAKATIMIZ MAKTABLARINI BITIRUVCHI OʻGʻIL-QIZLARIMIZGA

Aziz farzandlarim, hurmatli ustoz va murabbiylar, muhtaram ota-onalar!

Bugun mamlakatimizdagi barcha umumtaʼlim maktablarida “soʻnggi qoʻngʻiroq”lar yangrab, bayram tadbirlari boʻlib oʻtmoqda. Mana shu hayajonli damlarda 472 ming nafar oʻgʻil-qizlarimiz maktab taʼlimini tugatib, katta hayotga yoʻllanma olmoqda.

Ana shunday unutilmas ayyom bilan barchangizni chin qalbimdan samimiy tabriklayman.

Biz bugun kelajak rejalarini tuzayotgan sizdek farzandlarimiz timsolida Yangi Oʻzbekistonni dunyoga tarannum etadigan bunyodkor kuchni koʻramiz.

Joriy yil birinchi marta 11 ming nafardan ziyod farzandlarimiz maktabni oltin va kumush medallar bilan tamomlamoqda. Bunday intiluvchan oʻgʻil-qizlarimiz kelajakda ham oʻz tengdoshlariga namuna boʻlib, yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshadi deb ishonaman.

Har bir maktab bitiruvchisining hayotda munosib oʻrin egallashi uchun hozirgi kunda katta kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etyapmiz.

Albatta, bugungi bitiruvchi — ertangi muhandis, shifokor, olim, shoir va adib, tadbirkor degani. Bugungi bitiruvchi — Uchinchi Renessans bunyodkori degani. Sizlar Yangi Oʻzbekistonning eng katta ishonchi va tayanchisiz.

Mamlakatimizda 207 ta oliygoh va 643 ta texnikum sizlarga zamonaviy bilim, kasb va malaka berishga tayyor. Tirishqoq, oʻz kuchiga ishongan yoshlarimiz hali maktabni tugatmasdan turib yurtimizdagi, chet eldagi nufuzli oliyoghlarga kirishga ulgurdi. Masalan, 171 nafar yoshlarimiz dunyoning yetakchi universitetlariga, yana minglab bitiruvchilar mamlakatimizdagi oliyoghlarga qabul qilindi.

Ana shu farzandlarimni, ularning ota-onalari va ustozlarini bunday yutuqlari bilan chin dildan tabriklayman.

Aziz bitiruvchilar!

Oʻzingiz koʻrapsiz, bugun hayot ham, mehnat bozoridagi talab ham shiddat bilan oʻzgarib bormoqda. Yangi-yangi kasblar paydo boʻlyapti. Til, kasb, kompyuter savodxonligi va mustaqil daromad topish koʻnikmasini egallash muhim zaruratga aylanmoqda. Mehnat bozori endi, avvalo, “hujjat” emas, amaliy bilim, malaka va natija soʻrayapti.

Bugun qishloqdagi oddiy maktab bitiruvchisi ertaga dunyo tan oladigan olim boʻladi. Bugun oldiga katta maqsadlar qoʻygan, intiluvchan, izlanuvchan yoshlarimiz ertaga millionlab insonlarga xizmat qiladigan texnologiyalarni yaratadi. Bugun kitob oʻqiyotgan bir qizaloq ertaga mamlakat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqadigan farzandlarni tarbiyalaydi.

Shu bois har biringiz kamida bittadan xorijiy til va zamonaviy kasbni egallashga harakat qiling. Bu kelajakka ochilgan eshik, siz uchun qoʻshimcha imkoniyat va ragʻbatdir. Tadbirkor boʻlishni istaydigan yoshlarimiz

uchun banklar joriy yil 25 trillion soʻm arzon kreditlar taklif etmoqda. Startap loyihalarini boshlagan bitiruvchilarga esa 100 million dollar mablagʻ tayyorlab qoʻyganmiz. Eng yirik AT kompaniyalar har yili kamida 50 ming bitiruvchini sunʼiy intellekt boʻyicha oʻqitib, yuqori daromadli ishga joylashtirishga tayyor. Kelgusi yillarda 168 ming gektar super intensiv sanoatlashgan bogʻlar tashkil qilamiz. Mazkur loyihalarda qatnashmoqchi boʻlgan bolalarimni men doim koʻllab-quvvatlayman.

Mana shu yangi sohalarda sizlar, albatta, oʻz kasbingizning haqiqiy egasi boʻlasiz!

Qadrli farzandlarim!

Bugungi tez oʻzgarayotgan davrda hayotga, uning keskin talablariga tayyor boʻlish bu — eng muhim vazifa.

Ushbu yoʻlda sizlar uchun eng yaqin doʻst va eng kuchli qurol — kitob. Chunki kitob — nur, ilm va ibrat manbai. Koʻp kitob oʻqigan inson hech qachon toʻgʻri yoʻldan adashmaydi, kuchli iroda, keng dunyoqarashga ega boʻladi.

Bugungi hayotimizda sizlar uchun oʻrnak boʻladigan yutuqlarimiz, yosh-yosh qahramonlarimiz koʻp. Toʻrt-besh yil oldin maktabni tugatgan Javohir Sindorov, Nodirbek Abdusattorov, Abduqodir Husanov kabi mashhur sportchilarimiz shaxmat va futbol olamida butun dunyoni qoyil qoldirmoqda.

Yosh kino ijodkorlarimiz suratga olgan qisqa metrajli film Kann xalqaro kinofestivali doirasidagi inklyuziv filmlar festivalida “Gran-pri” mukofotini olishga sazovor boʻldi.

Kuni kecha futbol boʻyicha milliy terma jamoamizni jahon chempionatiga katta tantana bilan kuzatdik.

Barchamizga cheksiz gʻurur va iftixor bagʻishlaydigan bunday yutuqlar ilgari tariximizda hech qachon boʻlmagan.

Koʻrapsizlarmi, chin dildan intilsa, harakat qilsa, Yangi Oʻzbekiston yoshlari qanday buyuk marralarni zabt etishga qodir!

Men ishonaman, sizlarning orangizdan ham ana shunday millat qahramonlari, Yangi Oʻzbekiston iftixorlari yetishib chiqadi!

Bu dunyoda har bir ongli inson ota-onasi, ustozlari va el-yurti ishonchini oqlashga intilib yashaydi. Inson uchun eng ulugʻ baxt, ulkan sharaf aslida shu.

Siz bugun maktabni tugatdingiz, lekin katta hayot maktabi endi boshlanmoqda.

Men sizlarga ana shunday tengsiz baxt, yuksak saodat egasi boʻlishlaringizni tilayman.

Oldingizga katta maqsadlar qoʻyishdan hech qachon qoʻrqmang!

Oʻzingizga ishonib, hamisha olgʻa boring! Doimo oʻzgarishlar, islohotlar ruhi bilan yashaydigan avlod boʻling!

Shu yoʻldagi ilk qadamlaringiz qutlugʻi va barakali boʻlsin!

Barchangizga baxt va omad hamisha yor boʻlsin, aziz farzandlarim!

Shavkat MIRZIYOYEV,
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti

NAMANGANDAGI XALQARO GULLAR FESTIVALI “GINNES REKORDLARI KITOBIDAN JOY OLDI



Xushxabar

“Gullar shahri” deya taʼrif berilgan, keyingi yillarda Oʻzbekistonning gullar brendiga aylangan Namangan shahrida 65-xalqaro Gullar festivali boʻlib oʻtmoqda.

Mazkur tadbirning ochilish marosimida xorijiy davlatlarning diplomatik korpus vakillari, chet el kompaniyalari va investorlar, madaniyat hamda sanʼat namoyandalari, sayyohlar va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Anʼanaga koʻra, festivalni 300 dan ziyod zamonaviy hamda retro avtomobillar va boshqa turli transport vositalaridan iborat avtokarvonning yurishi boshlab berdi.

“Namangan” xalqaro aeroporti oldidan yoʻlga chiqqan ming turfa

gullar bilan sanʼat asari darajasida tematik ruhda bezatilgan bayram avtokarvonini tantananing bosh manzili — Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi madaniyat va



istirohat bogʻigacha boʻlgan oʻn kilometrdan ziyod masofada shohkoʻchaning ikki chetida butun shahar ahli olqishlar bilan kuzatib turdi.

Festival doirasida dunyo miqyosidagi tarixiy natija qayd etildi. “Jamoaviy holatda eng koʻp

gul ekish” yoʻnalishi boʻyicha yangi jahon rekordi oʻrnatilib, festival rasman “Ginnes rekordlari kitobi”ga kiritildi.

Tantanal marosimda “Guinness” vakili Sheyda Subasi tomonidan “Ginnes rekordlari kitobi” sertifikatini viloyat hokimiga topshirildi.

SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVINING ENG MUHIM KOʻRSATKICHI

Bugun Yangi Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlar nafaqat iqtisodiyot yoki infratuzilma sohasini, balki davlat boshqaruvi tizimini ham mutlaqo yangicha bosqichga olib chiqmoqda. Ayniqsa, “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi lozim” degan tamoyilning davlat siyosati darajasiga koʻtarilgani mamlakatimiz taraqqiyotidagi eng muhim oʻzgarishlardan biri boʻldi.

Munosabat

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishtirokida Xalqaro kongress markazida boʻlib oʻtgan “Sifatlil davlat boshqaruvi” dasturi doirasidagi taqdirlash marosimi ham ana shu ezgu gʻoyaning amaliy ifodasi sifatida katta ahamiyat kasb etdi. Chunki bugun davlat idoralari faoliyatiga faqat rasmiy hisobot yoki statistik raqamlar orqali

emas, balki aholi hayotidagi real oʻzgarishlar orqali baho berilmoqda.

Taʼkidlash lozimki, har qanday islohotning samarasi, avvalo, inson manfaatida namoyon boʻlishi kerak. Fuqaro davlat xizmatidan rozi boʻlsa, tadbirkor ortiqcha toʻsiqlarsiz ishlay olsa, odamlar oʻz muammosiga tez va adolatli yechim topsa — bu samarali davlat

boshqaruvining eng muhim koʻrsatkichi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, mamlakatimizda byurokratiya va qogʻozbozlikni qisqartirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, qaror qabul qilish jarayonida ochiqlik va shaffoflikni taʼminlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar alohida eʼtirofga loyiq. Xususan, soʻnggi yillarda davlat xizmatlarining elektron shaklga oʻtkazilishi odamlarning vaqti va sarsongarchiligini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Quvonarli jihat shundaki, “Sifatlil davlat boshqaruvi” dasturi doirasida davlat idoralari faoliyati xalqaro ekspertlar ishtirokida baholanmoqda.

Aks sado

MAʼNAVIY UYGʻONISH — TARAQQIYOT ASOSI

Yaqinda “Xalq soʻzi” gazetasida chop etilgan siyosatshunos Qudratilla Rafiqovning “Millat shavkati” maqolasini oʻqir ekanman, davlatimiz rahbarining Samarqandda amalga oshirgan ulkan ishlari misolida keyingi yillarda yurtimizda yuz bergan oʻzgarishlar koʻz oldimda yorqin namoyon boʻldi. Muallif eʼtirof etganidek, Shavkat Mirziyoyevning Samarqand viloyati rahbari sifatidagi faoliyati davrida asos solingan maʼnaviy uygʻonish keyinchalik butun mamlakat taqdiri va taraqqiyot yoʻlini belgilab bergan ulkan strategik islohotlar uchun mustahkam asos boʻldi.

Darhaqiqat, oʻtayotgan oʻn yillik nafaqat Samarqand, balki Oʻzbekiston hayotida yangi davrni boshlab berdi. Bunga yurtimizning barcha hududlarida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik va obodonlashtirish, inson qadrini ulugʻlash, millat ruhiyatini

uygʻotish borasida olib borilayotgan ishlar misolida guvoh boʻlib turibmiz. Ayniqsa, Samarqand dunyo siyosatchilari va iqtisodchilari tez-tez jam boʻladigan xalqaro diplomatiya sahnasi, taʼbir joiz boʻlsa, yirik siyosiy-iqtisodiy markazga aylandi.

Eʼtirof

LONDON FOND BIRJASIDAGI YIRIK “IPO”

Yangi Oʻzbekistondagi ortga qaytmas islohotlarning yana bir yorqin tasdigʻi

Agar bundan oʻn yil avval Oʻzbekiston tez orada jahonning iqtisodiyoti eng tez rivojlanayotgan va oʻz ovozi, ulugʻvor tashabbuslari bilan tilga tushadigan davlat sifatida namoyon boʻladi deyishganida, bu gapga chet elliklarni qoʻyaturing, oʻzimiznikilar ham ishonmasdi. Chunki muammolar shu qadar koʻp ediki, buni birdaniga bartaraf etish, bank-moliya tizimini zamonaviy tarzda izga qoʻyish, iqtisodiyotni oyoqqa turgʻazish, eng muhimi, odamlarning dunyoqarashini oʻzgartirish — bir qarashda uddalab boʻlmas masala edi. Ammo yuritilayotgan oqilona siyosat, liberal iqtisodiy islohotlar tufayli unga amalda erishilmoqda. Oʻzbekiston oʻz tarixida ilk bor davlat aktivlarini xalqaro kapital bozori — London fond birjasiga qoʻygani ham buning yorqin dalili.

Surur

BAXTIYOR AVLODGA BAXSHIDA

Nurlar ogʻushida uygʻongan, ey tong,
Jozibang bagʻrida hayajonda jon.
Bu kun ham hayotda moʻʼtabardir eng,
Tolega berilgan betakror imkon.

Otlar yuziga bir bor nazar sol,
Qara, qanday masrur onalari ham.
Shodlangin, ulgʻayar koʻrmayin zavol,
Koʻzlari chaqnagan bolalari ham.

Nigohing quvnaydi bogʻlarni koʻrib,
Yashillik olami tortar mehriga.
Qishlogʻ-u ovulni oralab yurib,
Oshino boʻlasan uning sehriga.

Jilmayib turgan u, bilsang, Javohir,
Shaxmat taxtasida dadil surgan ot.
Manaman deganni yengib u oxir,
Bellashib mardlarcha aylagandi mot.

Barchinoy kelbatli Diyora biri,
Epchillik bobida sira yengilmas.
Gʻoliblik har kimning emas hunari,
Hattoki yigitlar kelolmaydi bas.

Yoshlarning omadi kelgan davr bu,
Ustozlar duosi boʻlgan ijobat.
Bu kunga kelguncha mehnat, sabr bu,
Gurkirab barg yozdi mehr, oqibat.

Xorazmiy izdoshi — matematiklar,
Dunyo maydonida boʻldi sovrindor.
Ilmni istiqbol tomon yetaklar,
Dildagi intilish, tengsiz iqtidor.

Temurbek avlodin shijoatin koʻr,
Tomirlarda joʻshar ulugʻlar qoni.
Bejizmas, bu elning qudrati ham zoʻr,
Asli bobolarning sobit iymoni.

Hammasiga guvoh bu koʻhna zamin,
Ne fothilar kechdi koʻtarib urxo.
Ammo Navoiyning sohir qalamini
Sindirolgan kuchni koʻrdimi dunyoʻ?

Bugun imkoniyat cheklanmas sira,
Taqqir zarbasini qilmaslar pisand.
Paralimpiyachi saffar ham, qara,
Yuksak maydonlardan qaytar sarbaland.

Kutayotir bizni olis mundial,
Jahon aro magʻrur toʻp surar oʻzbek.
“Oq boʻrilar” bunda yengilmas azal,
Futbol osmonida chaqnar yulduzdek.

Bugun qoʻlga kitob olmoqlik fasli,
Idrokilar ulgʻayar bobolarga xos.
Tafakkur, zakovat donolar nasli,
Yovqur, yosh koʻzlarda chaqnaydi ixlos...

Derlar oqqan daryo oqmasdan qolmas,
Bu yurtda buyuklar ulgʻayar hali.
Bilimdon millatni yovlar bosolmas,
To soʻnmasa agar irfon mashʼali.

Guruchlar kurmaksiz boʻlmagan kabi,
Gohida yoʻllarda uchraydi nokas.
Obroʻ talashmoqlik kimning matlabi,
Qornidan boshqasin, balki oʻylamas.

Balki gʻalamislar payt poylar sergak,
Axir bogʻ oralab oʻsar tikanlar.
Bordir elga oʻzin koʻrsatib doʻstdek,
Dushmanga sotishga tayyor turganlar.

Aziz xalq angladi oʻzlikni bugun,
Oʻsib kelayotir mard, jasur avlod.
Odil Yoʻlboshchining ortidan butun,
El borar — qalbida ulugʻvor imdod.

Afsus, dunyo hamon chayqalar notinch,
Qoʻyib bir-biriga beayov gʻovlar.
Garchi Vatan sokin, tunlarimiz tinch,
Omonlik qadrini bilmas birovlar.

Nurlar ogʻushida uygʻongan, ey tong,
Xush kelding oʻlkamga kengliklar oshib.
Yurtim har goʻshasin ay-la charogʻon,
Har yurakka kirgin keng quloch yozib.

Toki nur qadriga yetsin har onda,
Gʻurur va shukurni aylasin odat.
Toki anglab yetsin Oʻzbekistonda
Tugʻilmoq, yashamoq ulkan saodat!

Oʻtkir RAHMAT.

Senator soʻrovi

IJTIMOIIY HIMOYAGA MUHTOJ YOSHLAR MUAMMOLARI QACHON OʻZ YECHIMINI TOPADI?



Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qoʻmitasi aʼzosi, senator Malika Qodirxonova tomonidan Yoshlar ishlari agentligi direktoriga ijtimoiy himoyaga muhtoj voyaga yetmagan yoshlarning huquqiy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ularni kasb-hunarga oʻqitish hamda ish bilan taʼminlash masalalari yuzasidan senator soʻrovi yuborildi.

Unda 2026-yil aprel oyi holatiga koʻra, Ichki ishlar vazirligi tizimidagi voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam koʻrsatish markazlaridan 14 638 nafar 16-17 yoshdagi oʻsmir oilasiga qatʼirilgani hamda ularning 2 671 nafari ID-kartaga ega emasligi qayd etilgan.

Taʼkidlanishicha, oilasi bagʻriga qaytgan yoshlarning aksariyatini ijtimoiy himoyaga muhtoj va yashash sharoiti ogʻir oilalar farzandlari tashkil qiladi. Ushbu oilalarning moliyaviy imkoniyati cheklangani sababli ayrim voyaga yetmaganlar oʻz vaqtida ID-karta olmamaypti. Bu esa ularni kasb-hunarga oʻqitish, bandligini taʼminlash va ijtimoiy dasturlarga jalb etishda bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Soʻrovda amaldagi qonunchilikka muvofiq Yoshlar ishlari agentligi ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni qoʻllab-quvvatlash, ularni kasb-hunarga oʻqitish, tadbirkorlikka yoʻnaltirish va bandligini taʼminlash borasidagi vazifalarga masʼul ekani taʼkidlangan.

Shu munosabat bilan agentlikdan ijtimoiy himoyaga muhtoj voyaga yetmaganlarni qoʻllab-quvvatlash, ID-kartasi mavjud boʻlmagan yoshlarni kasb-hunarga oʻqitish va ish bilan taʼminlashga koʻmaklashish, ularni manzilli qoʻllab-quvvatlash boʻyicha rejalashtirilgan choralar, shuningdek, masʼul idoralar oʻrtasidagi hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida asoslantirilgan maʼlumot taqdim etish soʻralgan.

BOʻLAJAK JURNALISTLAR BILAN UCHRASHUV

Oʻzbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tashkil etilganining 8 yilligi munosabati bilan tadbirlar oʻtkazildi. Unda Oliy Majlis Senatining Fan, taʼlim va sogʻliqni saqlash masalalari qoʻmitasi aʼzosi Husan Ermatov qatnashdi.

Tadbir

Senator universitet professor-oʻqituvchilari, talabalar va yosh tadqiqotchilar bilan uchrashib, bugungi global axborot makonida jurnalistika oldida turgan dolzarb vazifalar xususida gapirib berdi.


Muloqotda zamonaviy jurnalistikaning asosiy mezonini nafaqat tezkorlik, balki xolislik, masʼuliyat va ishonch ekani taʼkidlandi. Shuningdek, senator yoshlarni milliy qadriyatlariga tayangan holda fikrlashga, axborot tarqatishda professional etika va mediasavodxonlik tamoyillariga qatʼiy amal qilishga chaqirdi.

Axborot xavfsizligi, feyk xabarlariga qarshi kurashish, raqamli platformalar taʼsiri, milliy media-makonida sogʻlom raqobat muhitini shakllantirish kabi mavzular haqida ham soʻz yuritildi.

Tadbirda ishtirokchilar universitetning soʻnggi yillardagi yutuqlari, xalqaro hamkorligi va yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar bilan tanishdi. Shuningdek, “Minbar” talabalar jurnali hamda “Студенческая жизнь” gazetasi maxsus sonlarining taqdimoti ham oʻtkazildi.

«Xalq soʻzi».

SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVINING ENG MUHIM KOʻRSATKICHI



Bu esa tizimda sogʻlom raqobat muhitini shakllantirish, kuchli va zaif tomonlarni ommalash qilish hamda ilgʻor tajribalarni xolislashtirish imkonini bermoqda.

Ayniqsa, Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligi kabi qator idoralarning raqamlashtirish, xizmat sifatini oshirish va samaradorlikni taʼminlash borasidagi natijalari davlat boshqaruvida mutlaqo yangi yondashuv shakllanayotganini koʻrsatadi. Bu orqali “jarayon uchun ishlash” emas, balki “natija uchun ishlash” tamoyili hayotga izchil tatbiq etilmoqda.

Bugungi kunda mazkur tizim faqat maʼmuriy mexanizm emas, balki inson qadrini ulugʻlaydigan, xalq ishonchini mustahkamlaydigan muhim institutga aylanib boryapti. Prezidentimiz tomonidan “inson qatʼi uchun” degan gʻoyaning barcha islohotlar markaziga qoʻyilayotgani ham bejiz emas.

Shu bilan birga, mahalliy hokimliklarning ham kelgusi bosqichda ushbu dasturda ishtirok etishi belgilangani ayni muddao. Chunki islohotlar samarasi, avvalo, tuman va shaharlarda, oddiy odamlar hayotida sezilishi kerak. Aholi davlatdan



rozi boʻlishi uchun quyi boʻgʻindagi rasmlar masʼuliyati, tashabbuskorligi va xalq bilan muloqotini hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Muhimi, bugun mamlakatimizda davlat xizmatchisiga nisbatan mutlaqo yangi talab shakllanmoqda. Endi rahbar yoki mutaxassisdan faqat topshirigʻ bajarish emas, balki tashabbuskorlik, innovation fikrlash, masʼuliyat va xalq dardini his qilish talab etilmoqda. Bu esa, oʻz navbatida, davlat boshqaruvi tizimining sifat jihatdan yangi bosqichga koʻtarilayotganini anglatadi.

“Sifatli davlat boshqaruvi” dasturi mamlakatimizda samarali, ochiq va xalqchil davlat tizimini shakllantirish yoʻlidagi muhim qadamlardan biri boʻldi. Zero, inson manfaati ustuvor boʻlgan jamiyatda taraqqiyot ham, adolat ham, xalq ishonchi ham mustahkam boʻladi.

Erkin GADOYEV, Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qoʻmitasi raisi.

BIOLABORATORIYALAR FAOLIYATI EʼTIBORDA

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xoʻjaligi masalalari va ekologiya qoʻmitasi raisi oʻrinbosari Sayyora Abdikarimova boshchiligidagi ishchi guruh Fargʻona viloyatida amalga oshirilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishmoqda.

Oʻrganish

Tashrif doirasida dastlab Quvasoy shahridagi Valik mahallasi hududida joylashgan “Quvasoy Nodirjon” koʻp tarmoqli fermer xoʻjaligi faoliyati koʻzdan kechirildi.

Xoʻjalik 2016-yilda tashkil etilgan boʻlib, umumiy maydoni 40,3 gektardan iborat. Shundan 39,2 gektarida intensiv bogʻ barpo qilinib, tomchilatib sugʻorish tizimi yoʻlga qoʻyilgan. Bu yerda gilos, oʻrik, shaftoli va olxoʻri kabi mevali daraxtlar parvarishlanmoqda. Tashkil etilgan intensiv bogʻlarda eksportbop gilos navlari yetishtirilib, zamonaviy agroteknologiyalar asosida yuqori hosildorlikka erishilyapti.

Anjuman

RAQAMLI DAVRDA QONUN USTUVORLIGI VA KIBERXAVFSIZLIK

Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida “Raqamli davrda qonun ustuvorligini taʼminlash: innovatsiyalar, inson huquqlari va xavfsizlik mutanosibligi” mavzida “Tashkent Cyberlex — 2026” xalqaro ilmiy-amaliy forumi boʻlib oʻtdi.

Ochilish marosimida Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korruptsiyaga qarshi kurashish qoʻmitasi raisi Abdulhakim Eshmuratov soʻzga chiqib, mamlakatimizda huquqni raqamlashtirish borasida amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlar, shuningdek, jamiyat hayotining barcha sohalarida kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlarining ustuvor yoʻnalishlariga toʻxtalib oʻtdi.

Tadbirda AQSH, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Xitoy, Singapur, Niderlandiya, Avstriya, Latviya, Isroil, Vyetnam, Turkiya, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Tojikiston, Moldova, Ozarbayjon va boshqa davlatlardan prokurorlar, sud ekspertlari, olimlar, huquqni muhofaza qilish organlari hamda raqamli texnologiyalar sohasi mutaxassislari qatnashdi.

Forum doirasida kiberjinoyatlarni fosh etish, raqamli kriminalistika yoʻnalishini rivojlantirish, dallalardan foydalanish amaliyoti, jinoyat sud ishlarini yuritishda sunʼiy intellekt texnologiyalarini qoʻllash, shuningdek, raqamli transformatsiya sharoitida inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish masalalari yuzasidan keng muhokamarlar oʻtkazildi.

Qirgʻizistonning Bishkek shahrida Markaziy Osiyo mamlakatlari parlamentlari vakillari uchrashuvi boʻlib oʻtdi. Unda Oliy Majlis Senati aʼzolari — Jamila Bobonazarova va Malika Qodirxonova qatnashdi.

DEKLARATSIYA HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLAYDI

Mazkur muloqot xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, gender tenglikni taʼminlash hamda gender zoʻravonlikka qarshi kurashishda parlamentlar rolini mustahkamlashga bagʻishlandi.

Tadbirda Markaziy Osiyo davlatlari, shuningdek, Ozarbayjon va Gruziya parlamentlari vakillari ishtirok etib, qonunchilikni takomillashtirish, profilaktika va ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish boʻyicha oʻzaro tajriba almashdi.

Uchrashuv davomida gender tenglik nafaqat ijtimoiy adolat, balki barqaror taraqqiyot, inson kapitali va iqtisodiy raqobatbardoshlikning muhim omili ekani alohida taʼkidlandi.

Yakunda mazkur masalalar boʻyicha parlamentlararo hamkorlikni yanada kuchaytirishga qaratilgan deklaratsiya qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.

GENDER TENGLIKKA YOʻNALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISHNING STRATEGIK AHAMIYATI

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Oʻquv markazida “Oʻzbekistonda genderga yoʻnaltirilgan byudjetlashtirishni rejalashtirish va uni byudjet jarayoniga bosqich-bosqich joriy etish” mavzuida oʻquv seminari boʻlib oʻtdi.

Seminar

Tadbirda bunday byudjetlashtirishni davlat moliyasini boshqarish tizimiga integratsiyalashning huquqiy va institutsional asoslarini mustahkamlash boʻyicha amaliy yondashuvlar muhokama qilindi.

Seminarining ochilishida Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qoʻmitasi raisi Orziqul Qozixonova soʻzga chiqib, mazkur tizimni davlat moliyasini boshqarish jarayoniga joriy etish muhim ahamiyatga ega ekanini taʼkidladi.

Aytilganidek, tizim davlat xarajatlarini rejalashtirish va amalga oshirishda ayollar va erkaklar manfaatlarini teng hisobga olish, gender tafovutlarini qisqartirish, byudjet jarayonlarida shaffoflik, hisobdorlik va nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ikki kun davom etgan seminar doirasida genderga yoʻnaltirilgan byudjetlashtirishning strategik ahamiyati, xalqaro tajriba va modellar, shuningdek, Oʻzbekistonda milliy qonunchilik asoslarini shakllantirish masalalariga bagʻishlangan mavzuli sessiyalar tashkil etildi.

Interfaol guruh muhokamalarida ishtirokchilar mamlakatimizda mazkur masala boʻyicha qonunchilik bazasini yanada takomillashtirishga xizmat qiluvchi muhim tamoyillar yuzasidan fikr almashdi.

Tadbirda genderga yoʻnaltirilgan byudjetlashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish byudjet xarajatlarini rejalashtirish va amalga oshirishda xotin-qizlar hamda erkaklar manfaatlarini, ehtiyojlarini toʻliq hisobga olish, parlament nazoratini kuchaytirish va gender tenglikni taʼminlash boʻyicha milliy majburiyatlarini samarali amalga oshirishga xizmat qilishi alohida taʼkidlandi.



“Xalq soʻzi”.

ISLOHOTLAR TAQDIRI HUDUDLARDA HAL BOʻLADI

Davlat boshqaruvida ochiqlikni taʼminlash davlat idoralarining xalqimiz oldidagi hisobdorligini kuchaytirishda eng muhim tamoyillardan biridir. Keyingi yillarda bu borada tizimli islohotlar, institutsional yangilanishlar amalga oshirilmoqda.

Mushohada

Oʻzbekiston Prezidenti “Sifatli davlat boshqaruvi” dasturi doirasida poytaxtimizda oʻtkazilgan taqdirlash marosimida qayd etganidek, har bir fuqaro kundalik hayotida his qilayotgan ijobiy oʻzgarishlar orqali davlat faoliyatiga baho beradi. Shu bois boshqaruv idoralari odamlarning muammolarini oʻz vaqtida va tizimli hal etishi zarur.

Davlat boshqaruvi samaradorligini kuchaytirish boʻyicha izchil xalqaro hamkorlik asosida dunyodagi ilgʻor tajribalar yurtimizda joriy qilinmoqda. Birlashgan Arab Amirliklari bilan sheriklikda amalga oshirilayotgan “Sifatli davlat boshqaruvi” dasturi shunday faoliyatning bir amaliy natijasi deb baholandi.

Eng asosiy jihatlardan biri — islohotlarning huquqiy asoslari mustahkamlanib borayotgani. Normativ-huquqiy hujjatlarda ochiqlik va hisobdorlik



tamoyillari qatʼiy belgilangani, shuningdek, xalqaro hamda xorijiy tajribalarga muvofiq milliy qonunchilik doimiy rivojlanishda ekani davlat boshqaruvining yanada tizimli boʻlishiga xizmat qilyotir.

Toʻgʻridan-toʻgʻri ishlaydigan qonunlar ortiqcha qogʻozbozlik va byurokratik toʻsiqlarni bartaraf etishda, maʼmuriy buyruqbozlikka suyanadigan eskicha boshqaruvga toʻliq chek qoʻyishda, aholining davlat tizimiga ishonchini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan ham sifatli davlat boshqaruvi bilan xalqchil qonun ijodkorligi bir-biriga uzviy bogʻliq.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni, raqamli texnologiyalar rivojlanishini davlat boshqaruvida qarorlar qabul qilish jarayonlariga ham talablarni oshirmoqda.

Qurbon hayiti munosabati bilan yurtimizdagi ogʻir va nogironlikni keltirib chiqaruvchi kasalliklarga chalingan 10 000 nafar bolada bepul jarrohlik amaliyotini oʻtkazish rejalashtirilgan.



LONDON FOND BIRJASIDAGI YIRIK “IPO”

Yangi Oʻzbekistondagi ortga qaytmas islohotlarning yana bir yorqin tasdigʻi



Dunyo sarmoyadorlari eʼtibori tushgan xalqaro tablodagi raqamlar yanada salmoqli: 2,4 milliard dollar. Bu Oʻzbekiston Milliy investitsiya jamgʻarmasiga qarashli davlat aktivlarining 30 foiz ulushi. Xalqaro hamkor

Muhammadsidiq AMANBAYEV,
Xalqaro Nordik universiteti prorektori,
professor:

— London fond birjasi kabi maydonlarda ochiqlik eng muhim mezon, korporativ boshqaruv va moliyaviy intizomga qoʻyiladigan talablar esa dunyodagi standartning choʻqqisidir. “BlackRock”, “Franklin Templeton”, “Redwheel” kabi yirik investorlar eʼtiborini tortish, qiziqirishning ilgari sinovdan oʻtgan oʻlchovi yoʻq. Chunki xalqaro kapital bugungi notinch davrda nihoyatda ehtiyotkor, yetti oʻlchab bir kesgandan soʻng ham ikkilanadi, hujjatlarga takror va takror nazar tashlaydi. Shunday ekan, yurtimizdagi har bir oʻzgarish, yutuq va muammo chet elliklar uchun katta qulaylikdir. Negaki, jamgʻarma portfelida “Uzbekistan Airways”, “Oʻzbektelekom”, “Oʻzbekgidroenergo”, “Hududgaztaʼminot”, “Milliy elektr tarmoqlari”, “Oʻzsanoatqurilishbank” kabi yirik kompaniyalarning aktivlari bor. Bu investor uchun Oʻzbekiston iqtisodiyotining strategik sektorlariga jamlangan portfelni sotib olish imkonini beradi. Qisqa fursatda “IPO”ga 160 dan ortiq institutsional investorlar qiziqish bildirgan, shu bois talab 2,8-2,9 mlrd. dollar atrofida shakllangan. Bir qator kompaniyalar, masalan, “BlackRock”, “Franklin Templeton”, “Redwheel” va “Allan & Gill Gray Foundation” bilan bogʻliq sarmoyadorlar 300 mln. dollarlik “cornerstone” majburiyatlarini olgan. Bu “IPO”ning eng muhim jihati. Bimalol aytish mumkinki, investorlar Oʻzbekiston aktivlarini faqat mahalliy voqea sifatida emas, balki “frontier market” — rivojlanayotgan, hali toʻliq ochilmagan bozor imkoniyati sifatida koʻrmogʻda.

Shu oʻrinda eʼtiboringizni yana bir muhim jihatga qaratmoqchiman. London fond birjasiga davlat aktivlarining yaxlit bir jamgʻarma orqali taqdim etilishi investorlar uchun katta qulaylikdir. Negaki, jamgʻarma portfelida “Uzbekistan Airways”, “Oʻzbektelekom”, “Oʻzbekgidroenergo”, “Hududgaztaʼminot”, “Milliy elektr tarmoqlari”, “Oʻzsanoatqurilishbank” kabi yirik kompaniyalarning aktivlari bor. Bu investor uchun Oʻzbekiston iqtisodiyotining strategik sektorlariga jamlangan portfelni sotib olish imkonini beradi. Qisqa fursatda “IPO”ga 160 dan ortiq institutsional investorlar qiziqish bildirgan, shu bois talab 2,8-2,9 mlrd. dollar atrofida shakllangan. Bir qator kompaniyalar, masalan, “BlackRock”, “Franklin Templeton”, “Redwheel” va “Allan & Gill Gray Foundation” bilan bogʻliq sarmoyadorlar 300 mln. dollarlik “cornerstone” majburiyatlarini olgan. Bu “IPO”ning eng muhim jihati. Bimalol aytish mumkinki, investorlar Oʻzbekiston aktivlarini faqat mahalliy voqea sifatida emas, balki “frontier market” — rivojlanayotgan, hali toʻliq ochilmagan bozor imkoniyati sifatida koʻrmogʻda.

“Franklin Templeton” rahbariyati ham Oʻzbekiston Milliy investitsiya jamgʻarmasi “IPO”sini “Oʻzbekiston va uning kapital bozori uchun belgilovchi bosqich” sifatida talqin qilmoqda. Marius Dan “Reuters” xalqaro axborot agentligi muxbiri savollariga javob berarkan, “IPO” muvaffaqiyati keyingi yillarda boshqa davlat va xususiy kompaniyalarning ham birjaga chiqishiga yoʻl ochishi mumkinligini eʼtirof etdi.

Xoʻsh, bundan Oʻzbekiston qanday manfaat topadi? Bu savolga javoblar aniq. Birinchi foyda — xalqaro ishonchdir. London fond birjasida listing qilish Oʻzbekiston kompaniyalari xalqaro investorlar oldida hisobot berishga tayyor ekanini koʻrsatadi. Bu keyingi “IPO”lar, obligatsiyalar

joylashtirish yoki yirik xususiyashtirish bitimlari uchun “benchmark” yaratadi.

Ikkinchi foyda — davlat aktivlari uchun bozor bahosi shakllanadi. Avval yirik davlat kompaniyalari qiymatini, asosan, baholovchilar yoki hukumat belgilagan boʻlsa, endi investorlar real pul bilan ularni baholamoqda. Oʻzbekiston Milliy



isloh qilish va biznes himoyasini kuchaytirish boʻyicha keng koʻlamli oʻzgarishlarni amalga oshirishni boshladi. Bugun koʻzga “yarq” etib koʻrinadigan raqamlar ana shu islohotlar natijasidir. Yaʼni oʻtgan toʻqqiz yil ichida mamlakat iqtisodiyoti qariyb uch barobar — 50 milliard dollardan 147 milliard dollargacha oʻsdi, eksport hajmi esa uch karra ortdi. Islohotlar koʻlami xalqaro reytinglarda ham aks etmoqda — Oʻzbekiston suveren kredit reytinglarini yaxshilab, iqtisodiy erkinlik indeksidagi oʻrni mustahkamlamoqda.

Oʻz aktivlarini taklif etayotgan

investorlar uchun muhim signal sifatida koʻrindi. Eʼtiboringizga havola qilinayotgan bir guruh iqtisodiy tahlilchilarning fikr-mulohazalari ham ushbu tarixiy voqeik hamda uning ahamiyati haqida.

Chjan LINCHJI (Zhang LINGZHI),
Xitoyning Sinszyan muhandislik instituti
Iqtisodiyot va boshqaruv maktabi professori:



— Aslida, mazkur jamgʻarma bundan ikki yil avval Oʻzbekiston Prezidentining 2024-yil 28-avgustdagi “Oʻzbekiston Respublikasi milliy investitsiya jamgʻarmasini tashkil etish toʻgʻrisida”gi qaroriga koʻra tashkil etilib, respublikadagi 10 ta yirik aksiyadorlik jamiyati negizida ish boshlagan. Uning zimmasiga aksiyalarni shu yil yakuniga qadar Toshkent va xalqaro, shu jumladan, London fond birjalari joylashtirish vazifasi qoʻyilgan edi. Bu xayrli ish ancha erta — yil yarmiga yetmasdan muvaffaqiyatli uddalandi va xalqaro ommaviy aksiyalar joylashtirilishi (“IPO”) bir vaqtning oʻzida London va Toshkent fond birjalari amalga oshirildi.

Eʼtiborli jihati, savdolarining dastlabki kunlaridayoq jamgʻarma aksiyalari barqaror oʻsib bormoqda va uch kun ichida dastlabki joylashtirishdagi 25 dollardan 27,25 dollarga koʻtarildi. Bunday oʻzgarish debut holatda ilgari kuzatilmagan va shunga mos ravishda davlat aksiyalarini joylashtirish shunchaki tabdirdan tantanaga aylandi. Jarayonni kuzatib, bu shunchaki moliyaviy bitimemas, balki Oʻzbekistonning yangi taraqqiyot modeli — ochiq, raqobatbardosh va xalqaro standartlarga yoʻnaltirilgan iqtisodiyotga oʻtayotganini anglatuvchi oʻziga xos qadam ekaniga yana bir karra ishonch hosil qildik. Buni iqtisodiy oʻsish va yuksalish nuqtasi, deb atash ham oʻrinli boʻladi.

Ochigi, kichikmi, kattami xalqaro maydonda, ayniqsa, Angliyada eʼtirof oʻz-oʻzidan kelmaydi. Bilimimiz, mahorat-u isbotlay olish sanʼatiningi qoʻllay bilishigiz, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar koʻlamini, mohiyatini tushuntira olishingiz kerak ularga. Biznes uchun katta kafolat va sahna hisoblangan London fond birjasi ijrochi direktori ham aksiyalar salohiyatiga tan bermasa, savdoning istiqboliga ishonmasa, iliq gap aytmaydi. U esa eʼtirof etdi, boshqa chet ellik moliyaviy ekspertlarning nigohida ham mamnunlikni koʻrdim. Bu eʼtiborga molik holat. Aslida esa xorijdagi har bir yutuq, ilmdami, iqtisodiy yoʻnalish yo sportdami, har bir gʻalaba Oʻzbekiston davlati rahbari tomonidan ushbu sohalariga qaratilayotgan katta eʼtiborning mevasidir.

Global savdo tizimiga kirish dunyo iqtisodiyotiga yanada yuqori darajada integratsiyani nazarda tutadi, xalqaro moliya bozori nochorlarni tan olmaydi, moliyaviy qudratga, zakavatli kuchga tayanadi. Xalqaro “IPO” — mamlakat iqtisodiyoti jahon biznesi uchun qanchalik tushunarli va maqbul boʻlib qolganining muhim koʻrsatkichidir. Bugun Oʻzbekiston biznes uchun maʼmuriy toʻsiqlarni ichil kamaytirmoqda, tartibga solishni soddalashtirmoqda, soliq va moliyaviy tizimlarni isloh qilmoqda. Oʻtgan yilning oʻzida mamlakatda jami 68 ta normativ-huquqiy hujjat xalqaro meʼyorlarga moslashtirilibdi. Bir qator cheklovlar bekor qilingani, tadbirkorlik uchun texnik va byurokratik toʻsiqlarga barham berilgani alohida eʼtirofqa loyiqdir. Xalqaro investorlar aynan shunday oʻzgarishlarga katta eʼtibor qaratadi — mamlakat shaffof va tushunarli qoidalar asosida ishlashga qanchalik tayyor ekaniga qaraydi, ana shu jihatni muttasil baholab boradi.

Oʻzbekistonning korporativ boshqaruv va moliyaviy shaffoflik boʻyicha xalqaro standartlarga mosligi “IPO”ning muvaffaqiyatini taʼminlayapti.

davlatga nisbatan xalqaro investorlarning ishonchi qanchalik yuqori boʻlsa, sanoat, infratuzilma, energetika, raqamlashtirish va yangi ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun resurslarni jalb qilish shuncha oson kechadi. Bu borada Oʻzbekiston dunyoni hayratlantirishga intilmoqda. Negaki, yurtimiz rahbariyati 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 240 milliard dollardan oshirishdek ulugʻvor maqsadni rejalashtirgan. Shu maqsadda barcha sohalar raqamlashtirishga katta eʼtibor qaratilmoqda. Ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosati darajasiga koʻtarilganidan mahalliy va xorijiy sarmoyadorlar manfaat topayotir. Ular davlatning odilona siyosati natijasida Oʻzbekiston biznes uchun qulay, tinch va kafolatli makonga aylanganini yaqqol his etyapti. Shu bois bugun Oʻzbekiston istiqbolli bozor maqomidan yirik global investorlar tizimli ravishda ishonch bildirayotgan mamlakat mavqeiga ega boʻlayotir. Bu esa shubhasiz, amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim natijasidir.

koʻrayotgan bir paytda oʻtkazilgani juda katta ramziy maʼnoga ega. Qolaversa, dunyo jamoatchiligi Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbuskorligi, oʻziga xos diplomatik yutuqlarini diqqat bilan kuzatmoqda, tahlil qilmoqda. Uning AQSh, Rossiya, Xitoy singari qudratli davlatlar rahbarlari bilan uchrashuvlari, erishilayotgan xalqaro bitimlar, kelishuvlar, yangidan yangi tashabbuslar ham Oʻzbekistonga ishonchini oshirmoqda. Konstruktiv siyosiy muloqot rivojlanmoqda, faol parlamentlararo almashinuvlar amalga oshirilmoqda. Xavfsizlik sohasida, terrorizm, ekstremizm va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish borasida samarali hamkorlik yoʻlga qoʻyilgan.

Oʻzbekiston madaniy diplomatiya tamoyillariga tayangan holda, dunyoning qudratli davlatlari qatori iqtisodi oʻrtacha boʻlgan mamlakatlar uchun ham oʻz bagʻirini ochdi. Tinchliksevar, barcha xalqlar uchun egizlik istaydigan, sarmoyadorlar uchun bir-biridan jozibador yangi loyihalarni taqdim etayotgan davlat sifatida oʻz taraqqiyot yoʻlini yaratmoqda. Ayni chogʻda minglab innovatsion loyihalarga kirishilgan va ularning aksariyati xorijiy investorlar ishtirokida kutilganidek natija koʻrsatmoqda. Kechagina xomashyo bazasi sifatida

MA’NAViy UYGʻONISH — TARAQQIYOT ASOSI



1 Dunyo tajribasidan maʼlumki, iqtisodiy, demografik, sanoat yoki madaniy jihatdan poytaxtdan keyin turadigan eng yirik shaharlar bor. Ular “ikkinchi shahar” (second city), “iqtisodiy markaz” yoki “megapolis” deya eʼtirof etiladi. Bunga Vashingtondan keyingi asosiy iqtisodiy markaz hisoblangan Nyu-York (AQSh), iqtisodiyot va demografiya borasida Anqaradan ham yirik shaharga aylangan Istanbul (Turkiya), Moskvadan keyin turadigan tarixiy va madaniy markaz Sankt-Peterburg (Rossiya) shaharlari misol boʻla oladi. Oʻzbekistonda esa bosh kentimiz Toshkentdan keyingi “ikkinchi shahar” maqomi, shubhasiz, oʻzining tarixiy, turistik va siyosiy nufuzi sababli Samarqandga tegishlidir.

Bunday deyish uchun asoslar yetarli, albatta. Bu koʻhna kent soʻnggi yillarda chin maʼnoda siyosiy, iqtisodiy, ishbiarmonlik, sanʼat va madaniyati markaziga aylandi. Uzoqqa bormaylik, 2025-yilning oʻzida u 40 dan ortiq nufuzli xalqaro tadbirlar, yirik anjuman va forumlarga mezbonlik qildi. Qadim sivilizatsiyalar beshigi boʻlgan koʻhna Samarqand oʻzining buyuk tarixi va muqaddas maskanlari bilan azaldan yetti iqimga mashhur boʻlsa-da, yaqin oʻtmishda mamlakatimizning rivojlangan hududlari qatoriga kira olmasi. Sanoat yetarli darajada rivojlanmagani, aholining katta qismi qishloq xoʻjaligida band boʻlgani tufayli ishlab chiqarish salohiyati juda past edi. Infratuzilmadagi muammolar esa turizm rivojiga soya tashlab turardi. Ana shunday murakkab bir paytda viloyatga Shavkat Mirziyoyev rahbar boʻlib kelgani, sergʻayrat hokim tomonidan uzoqni koʻzlab olib borilgan tizimli ishlar tufayli hudud taraqqiyotida mutlaqo yangi bosqichga qadam tashlandi. Jalb etilayotgan investitsiyalar hajmi, texnologiya va innovatsiyalar koʻlami karrasiga ortib, sanoat rivojlandi, taʼlim va tibbiyoti sohalarini takomillashdi, turizm istiqbolida yangi ufqlar ochildi.

Bir paytlar abgor ahvolga kelib qolgan turizm infratuzilmasini yaxshilash ishlari 2017-yildan soʻng yanada keng koʻlam kasb etdi. Ayniqsa, Prezidentimiz gʻoyasi va tashabbusi bilan bunyod etilgan “Buyuk Ipak yoʻli” xalqaro turizm markazi hududning yangi “tashrif qogʻozi”ga aylandi. Kezi kelganda aytish joqlik, ushbu koʻp tarmoqli markaz tarkibida 8 ta zamonaviy mehmonxona, Kongress xoli, “Boqiy shahar” majmuasi, amfiteatr va koʻplab boshqa inshootlar mavjud boʻlib, yiliga 2 million turistga xizmat koʻrsatish imkoniyatiga ega. Natijada mehmonxona xizmatlari sifati jahon standartlariga mos darajaga yetkazilib, anʼanaviy ekskursiyalar oʻrnini zamonaviy servis egalladi. Buning hudud iqtisodiyotiga qanchalik katta naf keltirayotganini sayyohlar soni 7 barobar oshgani, turistik xizmatlar eksporti esa 600 million dollarga yetgani ham tasdiqlay turibdi. Qolaversa, viloyatning asosiy iqtisodiy koʻrsatkichlari ham ortib boryapti. Agar yalpi hududiy mahsulot hajmi 2016-yilda 23 trillion soʻm boʻlgan boʻlsa, 2025-yil yakuni bilan ushbu koʻrsatkich 121,5 trillion soʻmni tashkil etdi. Shuningdek, asosiy kapitalga investitsiyalar 3,6 trillion soʻmdan 38,3 trillion soʻmga, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish 7,4 trillion soʻmdan 57,8 trillion soʻmga yetib, qariyb 8 barobar oshgan.

Albatta, ushbu yutuqlar oʻz-oʻzidan qoʻlga kiritilayotgani yoʻq. Buning zamirida hududlarni tizimli rivojlantirishga qaratilgan oqilona iqtisodiy siyosat muvassam. Ana shu ezgu qarash Samarqandning maʼnaviy hayotida tub bulirish yasadi. Shaharda Registon, Shohi Zinda, Amir Temur, Bibixonim, Xoja Doniyor, Ruhobod, Hazrati Xizr, Rasadxona, Dahbed, Nodir devonbegi, Xoja Ahror Valiy yodgorlik majmualari tarixiy qiyofasiga mos tarzda tiklandi.

Shu bilan birga, qarovsiz qolgan osori atiqalar, nazardan uzoq muqaddas manzillar obod etilib, ziyorat turizmi salohiyati karrasiga oshirilmogʻda. Bu haqda gap ketganda, Imom Buxoriy majmuasi qaytadan bunyod etilgani, Imom Moturidiy majmuasi taʼmirlanayotganini alohida taʼkidlash zarur. Shu kabi keng koʻlamli ishlar natijasida viloyatda ziyoratchilar uchun har tomonlama qulay shart-sharoit yaratilaypti. Imom Buxoriy majmuasi qoshida turizm markazi ochilgani, unga yondosh 15 gektar maydonda zamonaviy infratuzilma yaratilib, shinam mehmonxonalar, xizmat koʻrsatish va servis nuqtalari barpo etilgani tufayli kuniga 65 ming nafar ziyoratchini qabul qilish imkoniyati paydo boʻldi. Vaholanki, ilgari bir kunda 12 ming ziyoratchiga xizmat koʻrsatilar edi, xolos.

Majmuaning mahobati va koʻrkam qiyofasiga boqib, kishining aqli shoshadi. 10 ming kishiga moʻljallangan ulkan masjid, maʼmuriyat binosi, 154 ustunli milliy uslubdagi muhtasham ayvon unga yanada ulugʻvorlik baxsh etib turibdi. Ziyoratgohning qoq markazida Imom Buxoriy bobomizning tabarruk maqbarasi oʻrin olgan.

Majmua tarkibida eng ilgʻor axborot texnologiyalari asosida 9 pavilyondan iborat noyob innovatsion muzey barpo etilgan boʻlib, u islom olamida muhaddislar sultoni deya eʼtirof etilgan Imom Buxoriyning hayoti va ilmiy merosi, islom maʼrifati rivojiga qoʻshgan hissasini namoyon etadi. Shuningdek, muzeyda Qurʼoni karimda ismlari zikr qilingan 25 paygʻambar tashari, Muhammad alayhissalomning shajarasi, Makka va Madinadagi hayoti, hadislarining jamlanishi va yozilishi haqidagi maʼlumotlar joylashtirilgan.

Yana bir quvonarli holat, yaqinda qurilish ishlari jarayonida buyuk faqih Buhoniddin Margʻinoniy dafn etilgan joy ham aniqlangan ziyorat turizmi viloyatda yana bir omil boʻldi. Ayni paytda u yerda maqbara tiklanib, tashrif buyuruvchilar uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmogʻda. Shu tariqa ulugʻ allomaning muborak nomi, benazir ilmiy-maʼrifiy merosi va buyuk taʼlimoti yana xalq qalbiga yuksak ehtirom va izzat-ikrom bilan qaytarilaypti.

Siyosatshunos eʼtibor qaratgan yana bir masala — Shavkat Miromonovichning insonparvarligi, odamlarga yuksak hurmati, mehri bilan bogʻliq ezgu amallari koʻplab oʻquvchilar qatori meni ham qalbimni larzaga soldi. Bu yerda gap Samarqand shahri biqinidagi Fidoiyilar va Sarbadorlar mahallalarida yashab kelgan koʻllarga qonuniy tarzda shaxs, yashash va mol-mulk huquqini beruvchi guvohnoma hamda pasport berish tizimi yoʻlga qoʻyilgani, mahallaning maktab ostonasini koʻrmagan bolalari ilm dargohlariga jalb qilangani, aholining idorama-idora yurib saron boʻlishiga sabab boʻlgan qoʻriqli muammolari shu yerning oʻzida tizimli hal etilgani haqida ketmogʻda... Bu katta jasorat, qatʼiy iroda mahsuli ekanini tasavvur qilish qiyin emes, albatta.

Demak, haqli ravishda eʼtirof etilganidek, “Davlat — xalq uchun” degan ezgu tamoyilga, odamlar dardini eshitish, muammoni joyida hal qilishning hayotiy mexanizmi oʻsha paytda mustahkam poydevorga qoʻyilgan. Uning mevasidan bugun butun mamlakat aholisi bahramand boʻlib, ertangi kunga ishonchi yanada mustahkamlanib bormogʻda.

Toʻliqin ESHNAZAROV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor.

Nodirbek KARIMOV,
Newcastle biznes maktabi, Northumbria universiteti
Moliya sohasi boʻyicha ass. professori, PhD
(Buyuk Britaniya):

— Nega bu voqea Oʻzbekiston uchun esda qoladigan tarixiy jarayon deb ataldi? Birinchidan, Oʻzbekiston davlat aktivlarining global bozordagi ilk qadamidir. “Reuters”, “Bloomberg” va boshqa axborot manbalari ham bu holatni takror sharhlamoqda. “Financial Times” esa Oʻzbekiston Milliy investitsiya jamgʻarmasining bu listingni Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan olib borilayotgan liberalashtirish siyosatining markaziy elementlaridan biri sifatida talqin qilgan.

Nashrga koʻra, Oʻzbekiston Milliy investitsiya jamgʻarmasi listingi xorijiy investorlarning Oʻzbekiston bozoriga qiziqishini tekshiruvchi muhim test boʻldi va keyinchalik Navoiy kon-metallurgiya kombinati kabi yirik davlat aktivlari uchun yoʻl ochishi mumkin. Qolaversa, London fond birjasi singari talabchan bozorda listing qilish kompaniya hisobotlari, boshqaruv standartlari, investorlar bilan ishlash, risklarni ochiqlash va korporativ boshqaruv boʻyicha xalqaro mezonlarga yaqinlashishni talab qiladi. Oʻzbekistonlik mutaxassislar

shu jarayonda katta tajriba ham toʻplashdi. Buni ham xorijiy axborot agentliklari eʼtirof etishmogʻda.

Yana bir savol tugʻiladi. Nega shu kungacha bunday “IPO” boʻlmagan? Buning sabablari talaygina. Shu paytgacha Oʻzbekiston iqtisodiyotidagi yirik aktivlar davlat nazoratida edi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan bu boradagi eschika qarashlar ham butkul barham topdi va davlat korxonalarini xususiyashtirish, tizimga xorijiy sarmoyalarni tezkorlik bilan jalb etishga jiddiy kirishildi. Kapital bozor oʻz nomiga mos ravishda manfaat keltiradigan jabhaga aylanmoqda, likvidligi oshmoqda. Bundan buyun Oʻzbekiston fond bozori butun dunyo boʻyicha ochiq boʻlarkan, bunda davlat aktivlarini xalqaro investorlar tushunadigan formatga oʻtkazish, ularni baholalish, audit va korporativ boshqaruv talablariga moslashtirish jarayoni juda muhimdir.

“IPO”ning mamlakat Jahon savdo tashkilotiga kirishga faol tayyorgarlik



Pokistonning yetakchi — “Indus Group” toʻqimachilik kompaniyasi Toshkent shahrida oʻz ofisini ochadi.

AYOLLAR FORUMI OSIYO MIQYOSIDAGI SERMAHSUL MULOQOT MAYDONIGA AYLANDI

Ko'hna va boqiy Buxoro shahri yana bir bor sivilizatsiyalar tutashgan markazga aylandi. Yaqinda bu yerda bo'lib o'tgan Osiyo xotin-qizlarining ikkinchi forumi nafaqat mintaqaviy, balki global ahamiyatga ega tarixiy voqelik sifatida e'tirof etilmoqda.



Nuqtai nazar

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, 20 dan ortiq xorijiy davlat va xalqaro tashkilotlardan yuqori martabali mehmonlar, jumladan, BMT bosh kotibi o'rinbosari, BMT Aholishunoslik jam'armasi Ijrochi direktori, Shanxay hamkorlik tashkiloti, xalqaro moliya institutlari vakillari, Osiyo parlamentlarining ayol a'zolari hamda xorijiy davlatlarning O'zbekistondagi diplomatik vakolatxonalari vakillarining ishtiroki mazkur anjumaning nufuzi naqadar yuqori ekanidan dalolat beradi.

Buxoro forumi anjuman bugungi dunyo uchun juda muhimligini qator jihatlari bilan namoyish etdi. Samarqandda o'tkazilgan birinchi forum bunday muloqot maydoniga qanchalik katta ehtiyoj borligini ko'rsatgan va xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qo'llab-quvvatlangandi. Buxoroda mazkur maydonni doimiy platformaga aylantirish yo'lida muhim qadam tashlandi.

Zero, bugun hech bir davlat xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirmasdan turib barqaror taraqqiyotga erisha olmaydi. Shu bois mazkur platforma nafaqat muloqot, balki umumiy yondashuvlar, amaliy hamkorlik va qo'shma tashabbuslarni shakllantirish maydoniga aylandi. Bu maydon — global tahdidlarga qarshi kurashda ayollar birdamligining yorqin ifodasi.

Hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, iqlim o'zgarishi, kambag'allik, tengsizlik va turli kamsitishlarga qarshi samarali yechimlarga faqat xotin-qizlarning faol ishtiroki orqali erishish mumkin. Shuning uchun ham turli sohalarning faol ayollarini qo'llab-quvvatlash, ular o'rtasida xalqaro hamkorlik va tajriba almashinuvini kengaytirish bugungi dolzarb vazifalardan biridir. Boz ustiga, Osiyo xalqlarini ming yillik tarixiy ildizlar, madaniy yaqinlik va ma'naviy qadriyatlar birlashtirib turadi. Forum aynan mana shu mustaraklikni yangi bosqichga olib chiqdi. Buxorodak muqaddas shaharda turli millat va din vakillari bo'lgan ayollarning jam bo'lishi

— madaniyatlararo muloqotning eng oliy namunasi, desak, adashmagan bo'lamiz. Bu yerda muhokama qilingan masalalar faqat huquqiy emas, balki insoniy qadriyatlarga asoslangani bilan ahamiyatlidir.

Intellectual va ijtimoiy salohiyat

Osiyo qit'asida istiqomat qilayotgan 5 milliardga yaqin aholining qariyb yarmini ayollar tashkil etadi. Bu ulkan intellektual va ijtimoiy salohiyat demak. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, biz ayollar timsolida nafaqat nafasot sohibalarini, balki mamlakatlar taraqqiyotini jadallashtirishga qodir bo'lgan ulkan bunyodkor kuchni ko'ramiz. Forum mana shu kuchni birlashtirish, uning imkoniyatlarini iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarga yo'naltirish uchun maydon vazifasini o'tadi.

Forumda qatnashgan ayollarning yuksak professional mahorati va boy tajribasi Osiyo mamlakatlarida adolati jamiyat barpo etishning muhim omili sifatida ko'rildi. Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoyalash tizimini takomillashtirish bo'yicha ilgari surilgan takliflar nafaqat mintaq, balki dunyo miqyosidagi standartlarni belgilashga xizmat qiladi. Buxoro forumi doirasida ayollarning ta'lim, sog'liqni saqlash va raqamli texnologiyalar sohasidagi rolini oshirish bo'yicha strategik yo'nalishlar belgilab olindi. Bu, o'z navbatida, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda yangi impuls bo'ladi.

Mazkur forumning O'zbekistonda, xususan, Buxoroda o'tkazilishi mamlakatimizda olib borilayotgan ochiqlik va inson qadriini ulug'lash siyosatining xalqaro e'tirofidir. O'zbekiston xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha o'z tajribasini Osiyo qit'asi bilan baham ko'rmoqda hamda bu borada yangi mintaqaviy muloqot formatini yaratmoqda. Aytgan bo'lardimki, Osiyo xotin-qizlarining Buxoro forumi yangi Osiyo uyg'onishida ayollarning o'rnini belgilab beruvchi manifestga aylandi. Birdamlik va hamkorlik ruhi bilan yo'g'rilgan ushbu anjuman xalqlar farovonligini

yuksaltirish, adolati dunyoni barpo etish yo'lidagi eng muhim qadamlardan biri bo'lib tarixda qoladi.

Zero, ayol baxtli bo'lgan jamiyat — barqaror va kelajagi porloq jamiyat. Buxoro zaminida yangragan ushbu haqiqat bugun butun Osiyo qit'asi bo'ylab aks sado bermoqda. Anjuman O'zbekistonning ayollar huquqlarini himoya qilish va kengaytirish borasidagi tajribasini o'rtoqlashishda o'ziga xos maydon vazifasini ham o'tadi. Tan olaylik, aynan xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish Yangi O'zbekistonning ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bu shunchaki siyosiy deklaratsiya emas, balki erkin, adolati va farovon jamiyat barpo etish yo'lidagi

“ Forumning O'zbekistonda, xususan, Buxoroda o'tkazilishi mamlakatimizda olib borilayotgan ochiqlik va inson qadriini ulug'lash siyosatining xalqaro e'tirofidir. O'zbekiston xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha o'z tajribasini Osiyo qit'asi bilan baham ko'rmoqda hamda bu borada yangi mintaqaviy muloqot formatini yaratmoqda. ”

izchil demokratik yangilanishlarning ajralmas qismidir.

Adolati va inklyuziv davlat barpo etishning muhim strategiyasi

Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarga e'tibor va g'amxo'rlik shunchaki majburiyat emas, balki jamiyatning har bir a'zosi teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lgan adolati va inklyuziv davlat barpo etishning muhim strategiyasidir. Ayolga e'tibor — bu inson shaxsiga, uning qadriga yuksak ehtiromning oliy namunasi bo'lib, bu siyosat O'zbekistonni xalqaro maydonda ham gender tenglik va inson huquqlarini himoyalashda yetakchi mamlakatlardan biriga aylantirmoqda. Bunday izchil sa'y-harakatlar natijasida O'zbekiston chinakam erkin va farovon jamiyat qurish yo'lida dadil qadam tashlamoqda.

Bevosita Buxoroda bo'lib o'tgan Osiyo xotin-qizlari forumida ilgari surilgan takliflarga qaytda qaytgan bo'lsak, u mintaq, ayollarning rolini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgani bilan diqqatga sazovordir. Qadimiy tuproqda, tarixiy va ma'naviy meros timsoli bo'lgan

maskanda qabul qilingan Osiyo xotin-qizlari ikkinchi forumining Buxoro deklaratsiyasi mintaq va butun dunyo uchun chuqur strategik ahamiyat kasb etadi. Ushbu hujjat nafaqat anjuman ishtirokchilarining umumiy fikri, balki kelajak avlodlar uchun xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini mustahkamlash, ularning jamiyatdagi o'rnini yanada yuksaltirishga qaratilgan muhim dasturilamadir. Deklaratsiya xotin-qizlarni barcha sohada, xususan, iqtisodiyot, siyosat, ta'lim va madaniyatda to'laqonli ishtirokchi sifatida tan oladi. U mamlakatlar taraqqiyoti va farovonligi uchun ayollarning hisssasi naqadar muhim ekanini yana bir bor ta'kidlaydi. Bu esa inklyuziv rivojlanish tamoyillarini

amalgacha oshirish uchun mustahkam huquqiy va siyosiy poydevor yaratadi. Deklaratsiya faqat teng huquqlarni e'lon qilish bilan cheklanmay, balki gender tenglikni amalda ta'minlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni belgilab beradi. Xususan, iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish kabi yo'nalishlar ayollarning moliyaviy va ijtimoiy erkinligini oshirishga xizmat qiladi.

Buxoro deklaratsiyasi sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini o'rgatuvchi platforma tashkil etish taklifi o'z ichiga oladi. Bu ayollarni zamonaviy

Forumda Buxoro davlat pedagogika instituti olimlari ham munosib ishtirok etdi. Tadbirda ular tomonidan bir-biridan dolzarb, muhim masalalar kun tartibiga qo'yildi, asosiysi, takliflarga oid loyihalar, muammolarga doir yechimlar ham aytib o'tildi. Yetakchi ayollar, olimlar o'zaro fikr almashdi, birgalikda loyihalar tayyorlashni rejalashtirdi, mustahkam aloqalar o'rnatdi. Yangi O'zbekiston tomonidan ilgari surilayotgan turli tashabbuslar Osiyo qit'asidagi millionlab ayollar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Texnologiya, iqtisodiyot va siyosiy iroda birlashgan joyda taraqqiyot bo'lishi muqarrar. Buxoro forumi esa ushbu taraqqiyotning mayog'i bo'lib xizmat qiladi.

Bahodir MA'MUROV,
Buxoro davlat pedagogika instituti rektori,
pedagogika fanlari doktori, professor.

POYTEXT BO'YLAB MAROQLI SAYOHAT

Ayni kunlarda mamlakatimizda ichki turizmni yanada rivojlantirish maqsadida qator ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda. Jumladan, O'zbekiston "Mahalla" xayriya jamoat fondi tashabbusi bilan "O'zbekiston bo'ylab sayohat qilamiz!" shiori ostidagi sayohat ana shulardan biri.

Turizm

Tadbir doirasida Farg'ona va Namangan viloyatlaridan 50 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj yurtdoshimiz poytaxtimizda bo'lib, bunyodkorlik ishlari, yangi inshootlar, tarixiy obidalar bilan tanishdi. Ikki kun davomida mehmonlar "Yangi O'zbekiston" bog'i, G'alaba bog'i maydoni, "Zangiota ziyoratgohi" va zamonaviy "Toshkent City" majmuasini qalbda quvonch bilan tomosha qilishdi.

Ayniqsa, sayohatchilarda O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazidagi boy tarixiy hamda ma'naviy meros namunalari katta taassurot qoldirdi. Poytaxtimizning zamonaviy qiyofasi mo'jizalari mehmonlarda yurt taraqqiyotiga nisbatan faxr va iftixor tuyg'ularini yanada mustahkamladi. E'tiborlisi, bu kabi tadbirlar aholining ma'naviy dunyoqarashini boyitish va ichki turizmni rivojlantirishga xizmat qilayotir.

Shohsanam YO'LDOSHEVA,
O'zDJTU talabasi.



PANDEMIYAGA CHIDAMLI KELAJAK UCHUN USTUVOR VAZIFALAR

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ko'magida Global tayyorgarlik monitoringi kengashi (GPMB) "Dunyo xavf ostida: Pandemiya chidamli kelajak uchun ustuvor vazifalar" nomli yangi hisobotni e'lon qildi.

Ta'kidlanishicha, navbatdagi global pandemiya xavfi ortib borayotgan bir paytda dunyoning unga tayyorgarligi pasaymoqda ekan. Hisobotda yuqumli kasalliklarning tarqalishi tez-tez va halokatli tus olgani ta'kidlanadi. Ularning salomatlik, iqtisodiyot va jamiyatga ta'siri kuchaymoqda, jamiyatning tez tiklanish qobiliyati esa pasaymoqda. COVID-19 pandemiyasidan keyingi islohotlar yetarli bo'lmadi.

Pandemiya jamg'armasi tashkil etilgani, JSST yangi dasturlari va pandemiya kelishuvi bo'yicha muzokaralar olib borilayotganiga qaramay, taraqqiyot o'sib borayotgan xavf-xatarlardan ortda qolmoqda. Kambag'al mamlakatlarda vaksinalar, test va dori-darmonlardan foydalanish imkoniyati sekinlashdi. Geosiyosiy keskinlik, iqlim o'zgarishi, bioxilmaxillikning yo'qolishi, ommaviy migratsiya va institutlarga ishonchning pasayishi dunyoni yanada zaiflashtirmoqda.

AFG'ONISTONGA QAYTAYOTGANLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH REJASI

BMT va uning hamkorlari Afg'onistonga qaytayotgan migrantlar uchun "Afg'onistonga qaytayotganlarni qo'llab-quvvatlash — 2026" deb nomlangan yordam rejasini ilgari surdi. Reja BMTning Afg'onistonga yordam ko'rsatish missiyasi (UNAMA) tomonidan e'lon qilindi.

Eron va Pokistondan qaytayotgan afg'onlarga ko'mak berish uchun 529 million dollar mablag' ajratiladi. Dastur 2026-yilning aprel oyidan dekabr oyigacha qaytishi kutilayotgan 2,7 million afg'onistonlikka yordam berishni ko'zda tutadi.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil sentyabr oyidan buyon mamlakatga qariyb 5,9 million afg'on qaytib kelgan. Ularning yarmidan ko'pini ayollar va bolalar tashkil etadi. Muhojirlarning ko'pchiligi xorijda tug'ilgan va Afg'onistonda yaqinlari yo'q. Agar ularga uy-joy, ichimlik suvi, tibbiy yordam va ish joylari berilmasa, mamlakatda qashshoqlik hamda ijtimoiy keskinlik yanada kuchayadi.

OLTIN QAZIB OLISH BO'YICHA YETAKCHI DAVLATLAR

"Visual Capitalist" tomonidan Jahon oltin kengashi ma'lumotlari asosida tayyorlangan infografikada oltin qazib olish bo'yicha yetakchi davlatlar reytingi keltirildi. Ma'lumotlarga ko'ra, Xitoy 380,2 tonna oltin qazib olish hajmi bilan dunyoda birinchi o'rinni egallagan. Bu jahon bo'yicha umumiy ko'rsatkichning 10 foizdan ortig'ini tashkil qiladi.

Shu bilan birga, Xitoy nafaqat eng yirik qazib oluvchi, balki dunyodagi eng katta oltin iste'molchilaridan biri ham hisoblanadi. Rossiya ikkinchi o'rinni saqlab qolgan. Avstraliya esa boy mineral-xomashyo zaxiralari va rivojlangan tog'-kon sanoati tufayli yuqori natijalarni qayd etmoqda.

Internet xabarlari asosida Sharofiddin TO'LAGANOV
("Xalq so'zi") tayyorladi.

REKLAMA

"TOSHKENT QISHLOQ XO'JALIGI TEXNIKASI ZAVODI" AJNING AKSIYALAR CHIQARILISHI TO'G'IRISIDAGI RISOLA/QARORLARI YO'QOLGANLIGI TO'G'IRISIDA

"Toshkent qishloq xo'jaligi texnikasi zavodi" AJ quyidagi hujjatlarining asl nusxalari yo'qolganini ma'lum qiladi va ularni haqiqiy emas deb topishni so'raydi.

1. 2014-yil 5-noyabrdagi RU101QO763T0-son bilan ro'yxatga olingan aksiyalarning birlamchi chiqarilishi to'g'risidagi risola va qarori — 17 varaqda.
2. 2015-yil 10-oktyabrdagi RU102QO763T8-son bilan ro'yxatga olingan qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qarori — 4 varaqda.

3. 2016-yil 21-sentyabrdagi RU103QO763T6-son bilan ro'yxatga olingan yangi aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qarori — 4 varaqda.

Qo'shimcha ma'lumot olish uchun quyidagi manzilga murojaat etilishi so'raladi: Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 434-uy, tel.: (71) 267-08-12

Akramjon SATTOROV
(«Xalq so'zi»).

"CHIRCHIQ QISHLOQ XO'JALIGI TEXNIKASI ZAVODI" AJNING AKSIYALAR CHIQARILISHI TO'G'IRISIDAGI RISOLA/QARORLARI YO'QOLGANLIGI TO'G'IRISIDA

"Chirchiq qishloq xo'jaligi texnikasi zavodi" AJ quyidagi hujjatlarining asl nusxalari yo'qolganini ma'lum qiladi va ularni haqiqiy emas deb topishni so'raydi.

1. 2015-yil 21-yanvardagi RU101LO258T7-son bilan ro'yxatga olingan aksiyalarning birlamchi chiqarilishi to'g'risidagi risola va qarori — 18 varaqda.
2. 2017-yil 7-avgustdagi RU102LO258T5-son bilan ro'yxatga olingan qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qarori — 4 varaqda.

3. 2018-yil 3-oktyabrdagi RU103LO258T3-son bilan ro'yxatga olingan qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qarori — 4 varaqda.

Qo'shimcha ma'lumot olish uchun quyidagi manzilga murojaat etilishi so'raladi: Chirchiq shahri, Navoiy ko'chasi, 92-uy, elektron manzil: shzxs@mail.ru, tel.: (78) 150-66-66

Dushanbeda "Vatandoshlar" jamoat fondi va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamkorligida nashr etilgan «Tojikiston o'zbek adabiyoti antologiyasi» kitobining taqdimoti bo'lib o'tdi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-142. 31 016 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53;

e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:

100066,

Toshkent shahri,

Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.

Navbatchi muharrir G'. Bahromov.

Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. Topshirildi — 23.35

1 2 3 4 5 6